

Navoiy viloyat statistika boshqarmasi

2019 yilning yanvar-aprel oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR

12681,4 mlrd.so'm sanoat ishlab chiqarish hajmi	100,3 % sanoat ishlab chiqarish indeksi
831,4 mlrd.so'm iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	102,8 % o'sish sura'ti
6,6 % iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi	10,7 % sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 12681,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 100,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 104,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 97,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 110,8 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 110,2 % ga o'sish hisoblanadi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1370,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,8 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10437,3 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,3 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,3 % ni, o'rta-yuqoritexnologiyali - 5,4 %, o'rta-quyi texnologiyali - 70,4 % va quyi texnologiyali - 6,2 % tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,2 %, metallurgiya sanoatining ulushi - 77,0 %, oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 %, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,7 %, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

Portlandsement, ming tonna

1194,0



1055,0

88,4

So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, tonna

14297,4



14626,0

102,3

Ammoniy nitrat, ming tonna

69,83



84,14

120,5

Temir beton, tonna

14819,24



15504,40

104,6

***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 849,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,7 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom-ashyo, tonna

19142,0



14867,00

77,7

Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm


4305,05



6222,127

144,5

2019-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi 2018-yil yanvar- aprel oylariga nisbatan %




Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Karmana (2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 121,9 %), Tomdi (113,6 %), Nurota (111,6 %), Konimex (106,7 %), Uchquduq (100,2 %) tumanlarida va Navoiy shahrida (102,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 831,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 102,8 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 6,6 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar bo'yicha istemol mollarining o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar- aprel oylariga nisbatan %




Shu bilan birga, Karmana (2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 114,6 %), Navbahor (104,9 %), Tomdi (104,1 %), Konimex (103,4 %), Qiziltepa (103,2 %) va Uchquduq tumanlarida (103,1 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



2019 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 559,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.

2018 yil yanvar-aprel




Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

2019 yil yanvar-aprel



Viloyatning boshqa korxonalari


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1359,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 10,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbahor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurota (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Uchquduq (100,0 %), Xatirchi (97,7 %), Qiziltepa (82,9 %) tumanlarida va Zarafshon shahrida (79,3 %), kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy shahrida (2,3 %), Konimex (23,9 %), Karmana (42,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatimizda 2057 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 600 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 29,2%) Navoiy shahriga, 343 tasi (16,7%) Karmana tumaniga, 281 tasi (13,7 %) Nurota tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019 yil 1 may holatiga)



2019 yil yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 348 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 15,2 foizi Navoiy shahriga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2019 yil yanvar-aprel)



Navoiy viloyati statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (436) 223-33-29